

Axborotlashtirish va
telekommunikatsiyalar
sohasida nazorat inspeksiyasining
2025-yil 27-yanvardagi
13-son buyrug‘iga
3-ILOVA

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi Ma’naviyat va ma’rifat kengashi

REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda – “O‘zkomnazorat” inspeksiyasi) Ma’naviyat va ma’rifat kengashining (keyingi o‘rinlarda – Kengash) vakolatlarini amalga oshirish yuzasidan uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Kengash “O‘zkomnazorat” inspeksiyasi markaziy apparati boshqarma va bo‘limlari hamda hududiy bo‘lim va shu‘balari, shuningdek, “Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi” MChJda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning amalga oshirilishini tashkil etadi va nazorat qiladi.

3. Kengash o‘z faoliyatida faqatgina Boshliqqa, ya’ni Kengash raisiga bo‘ysunadi va o‘z faoliyatida unga bo‘ysunadi.

4. Kengash ishiga to‘sqinlik qilish va faoliyatiga aralashish qat’iy taqiqlanadi.

5. Kengash qarorlari bayon shaklida qabul qilinib, ko‘rsatma va topshiriqlari esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri mas’ul ijro qilishi lozim bo‘lgan vazifa sifatida Kengash raisi yoki uning o‘rinbosari tomonidan imzolanib ijroga qaratiladi.

6. Kengashning qarorlari, topshiriqlari va ko‘rsatmalari “O‘zkomnazorat” inspeksiyasi markaziy apparati boshqarma va bo‘limlari hamda hududiy bo‘lim va shu‘balari, shuningdek, “Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi” MChJ uchun majburiy hisoblanadi va uning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi tegishli mas’ulga nisbatan intizomiy jazo qo‘llashga asos bo‘ladi.

7. Kengash majlisidagi masalalar Kengash shaxsiy tarkibi ishtirokida yoki (va) ushbu Reglamentning 6-bandidagi tuzilmalar va mas’ullar ishtirokida ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

2-bob. Kengash ishini rejalashtirish va tashkil etish

8. Kengash o‘z ishini normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar bilan ijroga qaratilgan hujjatlarning ijrosini tashkillashtirish maqsadida rejalashtiradi.

9. Rejalashtirish Kengash kotibi - Boshliqning davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi tomonidan tashkillashtiriladi.

10. Kengash o'z qarorlari va topshiriqlari ijrosi yuzasidan "O'zkomnazorat" inspeksiyasi markaziy apparati boshqarma va bo'limlari hamda hududiy bo'lim va shu'balari, shuningdek, "Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi" MChJ dan ma'lumotlar oladi.

11. Kengash qarori og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin.

12. Kengash kotibi Kengash tarkibini Kengash majlisi o'tkazilishi belgilangan vaqt va joyi hamda majlis o'tkazilish tartibi, shuningdek, kun tartibidagi masala bo'yicha xabardor qiladi.

3-bob. Masalalarni Kengashga kiritish, shuningdek, ularni tayyorlash va ko'rib chiqish tartibi

13. Kengash o'ziga yuklangan vazifalarga oid masalalarni ko'rib chiqadi.

14. Kengash o'z ishini nizom asosida tashkil qiladi.

15. Kengash majlisi vaqtida kun tartibidagi masala bo'yicha Kengash kotibi yoki masul shaxs tomonidan Kengash shaxsiy tarkibiga tushuntirish beradi.

16. Kengash shaxsiy tarkibi Kengash kotibi yoki masul shaxsning tushuntirishlari va u tomonidan taqdim qilingan hujjatlar va materiallarni ko'rib chiqib, o'zlarining fikr-mulohazalarini bayon etadi.

17. Kengash majlisi borishi haqida Kengash kotibi tegishli bayon rasmiylashtiradi va rasmiylashtirilishini ta'minlaydi.

4-bob. Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini tashkil etish va ularni nazorat qilish tartibi

18. Kengash qabul qilgan qaror ijrosi va nazorati Kengash kotibi tomonidan amaldagi qonunchilik hamda "O'zkomnazorat" inspeksiyasi hujjatlari asosida tashkillashtiriladi.

19. Kengashning ushbu bobda nazarda tutilmagan masalalar bo'yicha qarorlari ijrosi Kengash kotibi tomonidan odatdagi tartibda nazoratga olinadi.